



## O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA YASHIL INVESTITSIYALARNING ROLI

**Qodirova Gulufar Nizomiddin qizi**

*O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi*

ORCID: 0009-0008-5915-553X

[qodirovagulufar@gmail.com](mailto:qodirovagulufar@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda yashil investitsiyalarning roli va ahamiyati tahlil qilingan. Atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish va ekologik toza texnologiyalarni joriy etishda yashil investitsiyalarni joriy qilish imkoniyatlari o'rganilgan. Shuningdek, O'zbekistonda mavjud yashil investitsiya loyihalari o'rganilib, ularni kengaytirish yo'lidagi asosiy to'siqlar tahlil qilinib, tegishli xulosa va takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, yashil investitsiya, barqaror rivojlanish, yashil moliyalashtirish, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik texnologiyalar.

## РОЛЬ ЗЕЛЕННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РАЗВИТИИ ЗЕЛеноЙ ЭКОНОМИКИ В УЗБЕКИСТАНЕ

**Кодирова Гулуфар Низомиддин кизи**

*Международная исламская академия Узбекистана*

**Аннотация.** В статье анализируется роль и значимость зеленых инвестиций в развитии зеленой экономики в Узбекистане. Рассмотрены возможности внедрения зеленых инвестиций для стимулирования экономической деятельности, не наносящей ущерба окружающей среде, развития возобновляемых источников энергии и внедрения экологически чистых технологий. Также исследуются существующие зеленые инвестиционные проекты в Узбекистане, анализируются основные препятствия на пути их расширения, и предлагаются соответствующие выводы и рекомендации.

**Ключевые слова:** зеленая экономика, зеленые инвестиции, устойчивое развитие, зеленое финансирование, возобновляемая энергия, экологические технологии.

## THE ROLE OF GREEN INVESTMENTS IN THE DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN

**Qodirova Gulufar Nizomiddin qizi**

*International Islamic Academy of Uzbekistan*

**Abstract.** This article analyzes the role and importance of green investments in the development of the green economy in Uzbekistan. It explores the opportunities for implementing green investments to promote environmentally friendly economic activities, develop renewable energy sources, and introduce ecological technologies. Furthermore, existing green investment projects in Uzbekistan are examined, the main barriers to their expansion are analyzed, and appropriate conclusions and recommendations are provided.

**Keywords:** green economy, green investment, sustainable development, green financing, renewable energy, ecological technologies.

### **Kirish.**

Bugungi kunda yashil iqtisodiyot jahon miqyosida barqaror rivojlanishning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ekologik muammolarni kamaytirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan model hisoblanadi. Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida yashil investitsiyalar alohida o'rin tutadi. Ushbu investitsiyalar qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltirilgan moliyaviy mablag'lardir.

O'zbekiston yashil iqtisodiyot konsepsiyasini amalga oshirishga katta e'tibor qaratmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. M. Mirziyoyevning PQ-4477-sonli Qaroriga muvofiq, 2019-2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining "Yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi" doirasida mamlakatda ekologik muammolarni hal qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida keng qamrovli chora-tadbirlar ishlab chiqildi (Qaror, 2019). Jumladan, qayta tiklanuvchi energiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash, ekologik toza transport tizimlarini rivojlantirish va resurslarni tejaydigan texnologiyalarni joriy etish borasida qator dasturlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda yashil investitsiyalar hajmini oshirish uchun xalqaro moliyaviy institutlar va xususiy sektor ishtirokini kengaytirish dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, yashil investitsiyalar iqtisodiy barqarorlikka erishishda va ekologik muammolarni bartaraf etishda muhim omil hisoblanadi. Shu sababli, ushbu maqolada yashil investitsiyalarning O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'рни va istiqbollari tahlil qilinadi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Bugungi kunda yashil investitsiyalar barqaror iqtisodiyot va ekologik muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Olimlar yashil investitsiyalarni turlicha ta'riflagan va ularning iqtisodiy hamda ekologik ahamiyatini tadqiq etganlar.

Amerikalik iqtisodchi Carney (2015) yashil investitsiyalarni "uglerod neytralligi va barqaror rivojlanishga hissa qo'shadigan kapital mablag'lar" deb ta'riflagan. U yashil moliyalashtirish mexanizmlarining iqtisodiyotdagi barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan.

Xitoylik olimlardan Jiang, Zhang va Chen (2023) yashil investitsiyalarning korporativ xatti-harakatlarga ta'sirini o'rganib, yashil obligatsiyalar barqaror moliyalashtirish kompaniyalarning ekologik javobgarligini oshirishini ta'kidlagan.

Taghizadeh-Hesary va Yoshino (2020) o'zlarining tadqiqotlarida, yashil moliyalashtirish samaradorligini oshirish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim ahamiyat kasb etishini aytib o'tishgan. Xususan, ular yashil obligatsiyalar, barqaror moliyaviy tizimlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan investitsiyalar yashil iqtisodiyotga o'tishda asosiy omillar ekanligini ta'kidlaydi.

Mokhov, Chebotareva va Khomenko (2018) yashil investitsiyalar xavfini modellashtirish bo'yicha tadqiqot olib borishgan bo'lib, ularning fikriga ko'ra yashil investitsiyalar bilan bog'liq xavflarni baholash va minimallashtirish uchun matematik modellashtirish muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, yashil investitsiyalar olimlar tomonidan turlicha talqin qilinsada, ularning zamirida ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va ijtimoiy farovonlikni oshirish maqsadida yo'naltiriladigan pul mablag'lari yotadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Mazkur tadqiqotda O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda yashil investitsiyalarning roli va ahamiyatini o'rganish maqsad qilingan. Tadqiqot davomida mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan yashil investitsiyalar, ularning iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyati

hamda yashil iqtisodiyotga tasiri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning xulosalari tahlil qilindi. Tadqiqotda iqtisodiy tahlil, guruhlash va qiyosiy tahlil kabi usullardan foydalanildi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ko'plab rivojlangan mamlakatlar singari O'zbekiston ham yashil iqtisodiyotni rivojlantirish uchun yashil investitsiya loyihalarini amalga oshirishda faol ishtirok etmoqda. Mamlakatning yashil iqtisodiyotni rivojlantirish strategiyasi doirasida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini kengaytirish, ekologik toza texnologiyalarni joriy etish va barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati xalqaro moliyaviy institutlar va xususiy sektor bilan hamkorlikda yirik yashil investitsiya loyihalarini amalga oshirishga kirishdi. O'zbekistonda yashil investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan muhim loyihalardan biri – Navoiy quyosh elektr stansiyasi (Nur Navoi Solar PV) hisoblanadi. Bu loyiha mamlakatning qayta tiklanadigan energiya bozorini rivojlantirish hamda energiya ishlab chiqarishda ekologik toza texnologiyalardan foydalanishni kengaytirishga xizmat qiladi. Navoiy quyosh elektr stansiyasi 100 megavatt (MW) quvvatga ega bo'lib, yillik 270,000 MWh elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Bu har yili 150,000 tonna karbonat angidrid ( $\text{CO}_2$ ) chiqindilarining oldini olish imkonini beradi va 31,000 ta uy xo'jaligining elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyojini qondirishga yordam beradi. Ushbu loyiha 267 gektar maydonda joylashgan bo'lib, u yerda 328,750 ta quyosh panellari o'rnatilgan. Loyihaga 120 million AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritilgan bo'lib, uni Birlashgan Arab Amirliklarining Masdar kompaniyasi tomonidan amalga oshirilgan. Masdar O'zbekiston hukumati va "O'zbekiston milliy elektr tarmoqlari" AJ bilan hamkorlikda loyihani ishlab chiqdi va 25 yil davomida uni ekspluatatsiya qilish huquqiga ega bo'ldi.

Bu loyiha O'zbekistonga xalqaro yashil investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha muvaffaqiyatli namunadir. Mamlakat 2030-yilga borib elektr energiyasining 25 foizini qayta tiklanadigan manbalardan ishlab chiqarish rejasini belgilagan bo'lib, Navoiy quyosh elektr stansiyasi bu strategiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi (Energetika vazirligi, 2022).

Shuningdek, mamlakatimizdagi yana bir muvaffaqiyatli yashil investitsiya loyihalaridan biri bu Zarafshon shamol elektr stansiyasi hisoblanadi. Zarafshon shamol elektr stansiyasi Markaziy Osiyodagibeng yirik shamol energiya loyihalaridan biri bo'lib, umumiy quvvati 500 MW va yiliga 1,6 TWh elektr energiya ishlab chiqaradi. Ushbu loyihaga 600 million AQSh dollari miqdorida Birlashgan Arab Amirliklarining Masdar kompaniyasi tomonidan investitsiya kiritilgan. Zarafshon shamol elektr stansiyasi har yili atmosfera havosiga 1,1 million tonna karbonat angidrid gazi chiqarilishini oldini oladi, bu esa O'zbekistonning 2030-yilgacha elektr energiyasining 25%ini qayta tiklanadigan manbalardan olish maqsadiga erishishiga katta hissa qo'shadi (Energetika vazirligi, 2022).

Shu bilan birga, KOICA (Korea International Energy Agency) O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishni kengaytirish va Orol dengizi inqirozlarini yumshatish maqsadida "Aral Sea GRIP" loyahasini moliyalashtirdi. Ushbu tashabbus GGGI (Global Green Growth Institute) bilan hamkorlikda amalga oshirilib, yashil investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha muhim natijalarga erishganligini aytishimiz mumkin. Mazkur loyiha doirasida 1 milliard AQSh dollari miqdorida yashil obligatsiyalar chiqarildi. SQB (Sanoat qurilish bank) orqali 575 million AQSh dollarida 14 ta yashil va ijtimoiy tashabbuslar uchun London fond birjasida obligatsiyalar chiqarilgan bo'lsa, Agrobank orqali 455 million AQSh dollari miqdoridagi pul mablag'lari iqlimga mos qishloq xo'jaligi loyihalariga yo'naltirildi. Ushbu loyiha xususiy va xalqaro investitsiyalarni jalb qilish orqali O'zbekistonda yashil moliyalashtirish mexanizmlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Yashil investitsiyalar ushbu kabi loyihalarga nafaqat ekologik, balki iqtisodiy jihatdan ham katta foyda keltiradi. Xususan:

- Xorijiy investitsiyalarni jalb qilish milliy energetika sektorining modernizatsiya qilinishiga yordam beradi;

- Energiya mustaqilligini ta'minlash orqali tashqi energiya resurslariga bo'lgan qaramlikni kamaytiradi;

- Energiya tejavchi texnologiyalarni joriy qilish orqali tabiiy resurslardan oqilona foydalanish imkoniyatlari kengayadi;

- Yashil texnologiyalar va sanoat rivojlanishi orqali yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishiladi;

Quyidagi jadvalda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan asosiy yashil investitsiya loyihalari va ularning maqsadlari keltirilgan.

## 1-jadval

## O'zbekistonda asosiy yashil investitsiya loyihalari

Loyiha nomi	Sohalar	Investitsiya miqdori	Hamkorlar	Loyiha maqsadi
Navoiy quyosh elektr stansiyasi (100 MWt)	Quyosh energetikasi	\$ 100 million	Masdar (BAA), O'zbekiston hukumati	CO <sub>2</sub> emissiyasini kamaytirish
Zarafshon shamol elektr stansiyasi (500 MWt)	Shamol energetikasi	\$ 600 million	Masdar (BAA), O'zbekiston hukumati	CO <sub>2</sub> emissiyasini kamaytirish
KOICA – Aral Sea GRIP	Qishloq xo'jaligi, suv	\$ 1 mlrd	KOICA (Koreya), GGGI, O'zbekiston hukumati	Orolbo'yi hududining yashil tiklanishi, suv resurslarini boshqarish
SQB yashil obligatsiyalari	Yashil moliyalashtirish	\$ 575 million	SQB, London fond birjasi	Yashil loyihalarni moliyalashtirish
Agrobank yashil obligatsiyalari	Qishloq xo'jaligi	\$ 455 million	Agrobank, GGGI, London fond birjasi	Barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish
Tomchilatib sug'orish dasturi	Qishloq xo'jaligi	\$ 288 million	Jahon banki, O'zbekiston hukumati	Suv samaradorligini oshirish, hosildorlikni ko'paytirish
Yashil ipoteka dasturlari	Uy-joy sektori	\$ 100 million	O'zbekiston hukumati, tijorat banklari	Ekologik uy-joy qurilishini rag'batlantirish

**Manba:** O'zbekiston Elektr energiya vazirligi, Global Green Growth Institute (GGGI) ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Shuni ta'kidlash joizki, O'zbekiston yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda bir qancha yashil investitsiya loyihalarini amalga oshirgan bo'lsa-da, hali ham ushbu sohada qator cheklovlar mavjud:

1. Yashil texnologiyalarni moliyalashtirishga kirish imkoniyati cheklanganligi.

Yashil investitsiyalarni kengaytirish uchun moliyaviy resurslarning yetarli bo'lishi muhim. Biroq, O'zbekistonda yashil loyihalarni moliyalashtirish asosan yirik davlat va xalqaro moliya institutlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Mahalliy banklar yashil kreditlash bo'yicha yetarli tajribaga ega emas va aksariyat hollarda faqat yirik loyihalarni moliyalashtirishga yo'naltirilgan. Shu sababli, kichik va o'rta biznes subyektlari yashil texnologiyalarni joriy etishda moliyaviy cheklovlarga duch kelmoqda. Shu bilan birga, past foizli yashil kreditlar va subsidiyalar yetishmovchiligi ham investitsiyalar hajmining cheklanishiga olib kelmoqda.

2. Normativ-huquqiy bazaning murakkabligi.

Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha O'zbekistonda qator strategik hujjatlar qabul qilingan bo'lsa-da, qonunchilik hali ham to'liq shakllanmagan. Yashil investitsiyalarni tartibga soluvchi huquqiy normalarning barqaror bo'lmagani va ba'zi jarayonlarning murakkabligi investorlarni chalg'itadi. Shuningdek, turli davlat idoralari tomonidan beriladigan ruxsatnomalar va litsenziyalash jarayoni uzoq davom etishi, xususiyl sektorning ushbu sohada

faol ishtirok etishiga to'sqinlik qiladi. Qonunchilikning aniq va shaffof bo'lmagani, jumladan, yashil obligatsiyalar va uglerod bozorini rivojlantirish bo'yicha aniq qoidalar yo'qligi ham investorlarning ishonchini pasaytiradi.

### 3. Texnologik va infratuzilma cheklovlari.

Yashil investitsiyalar samarali bo'lishi uchun zamonaviy texnologiyalar va rivojlangan infratuzilma talab etiladi. Biroq, O'zbekistonda qayta tiklanuvchi energiya, ekologik qishloq xo'jaligi va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha ilg'or texnologiyalarni keng joriy etish hali ham sust kechmoqda. Ko'pgina korxonalar va fermer xo'jaliklari ekologik toza texnologiyalarni sotib olish va ulardan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan bilim va malakaga ega emas. Bundan tashqari, elektr tarmoqlari va energiya saqlash texnologiyalarining eskirganligi, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan olinadigan quvvatni tarmoqqa ulashda muammolarni yuzaga keltiradi.

### 4. Bozor mexanizmlarining cheklanganligi

Yashil moliyalashtirish vositalari, jumladan yashil obligatsiyalar va uglerod kreditlari joriy etilgan bo'lsa-da, ularning bozordagi ulushi hali past. Investorlar va tadbirkorlar yashil obligatsiyalar orqali kapital jalb qilish imkoniyatlari haqida yetarlicha ma'lumotga ega emaslar. Shuningdek, uglerod bozorlarining yetarlicha rivojlanmagani ham yashil investitsiyalarni rag'batlantirish imkoniyatlarini cheklaydi. Yashil investitsiyalar sohasida davlat-xususiy hamkorlik mexanizmlarining yetarlicha yo'lga qo'yilmagani ham muhim omillardan biridir.

Ushbu to'siqlarni bartaraf etish uchun O'zbekiston yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirishi, xalqaro tajribani mamlakatimizda qo'llash va davlat-xususiy sheriklikni mustahkamlash kabi bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirishi maqsadga muvofiqdir. Yashil kreditlar va subsidiyalarni ko'paytirish, qonunchilikni takomillashtirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish yashil investitsiyalarni yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Agar ushbu masalalar tizimli ravishda hal etilsa, O'zbekiston yashil iqtisodiyot bo'yicha Markaziy Osiyodagi yetakchi davlatlardan biriga aylanishi mumkin.

## **Xulosa va takliflar.**

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yashil investitsiyalar O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va ekologik jihatdan xavfsiz rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Ular ekologik toza texnologiyalarni joriy etish, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish va resurslardan samarali foydalanishni rag'batlantirish orqali atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Shu bilan birga, yashil investitsiyalar ish o'rinlarini yaratish, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Mamlakatda yashil iqtisodiyotning rivojlanishi uchun davlat siyosatini takomillashtirish, qonunchilik asoslarini mustahkamlash va biznes muhitini yanada yaxshilash muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, moliyaviy mexanizmlar, jumladan, yashil obligatsiyalar, subsidiyalar va soliq imtiyozlari, ushbu jarayonda katta o'rin tutadi. Shu sababli, O'zbekistonda yashil investitsiyalarni jalb qilishga yo'naltirilgan strategik chora-tadbirlarni kuchaytirish, xususan, xususiy sektor va xorijiy investorlar ishtirokini oshirish zarur.

Shunday qilib, yashil investitsiyalar nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki iqtisodiy o'sishning yangi manbalarini yaratish, innovatsion yechimlarni joriy etish va aholi farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi. Bu boradagi izchil sa'y-harakatlar O'zbekistonning ekologik va iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi.



**Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:**

Hepburn, C. (2019). *Green Finance and Investment Strategies*. Oxford University Press.

Jiang, L., Zhang, W., & Chen, Y. (2023). *The effect of green investment on corporate behavior*. JSTOR.

Mokhov, V. G., Chebotareva, G. S., & Khomenko, P. M. (2018). *Modelling of "green" investments risks*. *Bulletin Of The South Ural State University Series-Mathematical Modelling Programming & Computer Software*.

Qaror (2019), O'zbekiston respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "2019-2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o'tish strategiyasi to'g'risida"gi PQ-4477-sonli Qarori.

Taghizadeh-Hesary, F. & Yoshino, N. (2020). *Sustainable solutions for green financing and investment in renewable energy projects*. *Energies*.

Vahabov, A. & Xajibakiyev, Sh. (2020). "Yashil iqtisodiyot". *Darslik*. Toshkent: Universitet, p. 16.

Vahabov, A. Xajibakiyev, Sh. X. (2021). "Qayta tiklanadigan energiya iste'molining tarkibi va rivojlanish istiqbollari". *Academic Journal of Digital Economics and Stability*.